

“MEN KIMNING QURBONIMAN?!”- OMINA SHENLIKO’G’LI ASARI

*Toxirova Marjona Murodali qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
“Boshlang’ich ta’lim” yo’nalishi
2-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Maqolada voyaga yetmagan 13 yoshli qizaloqning qishloqdan shaharga kelib qolishi, ayni shu gullab, yashnashi kerak bo’lgan bir davrda ayanchli qismatga yuz tutishi haqida so’z boradi.

Tayanch so’zlar: ilmsizlik, loqaydlik, johillik, firbgarlik, imonsizlik.

Аннотация: В статье рассказывается о несчастной судьбе 13 летней девочки, переехавшей из деревни в город в то время, когда она должна была процветать и жить.

Ключевые слова: незнани, безразличие, невежество, обман, неверие.

Annotation: The article talks about the sad of a 13-year-old girl who came from the village to the city, at a time when she should flourish and live.

Keywords: ignorance, indifference, ignorance, fraud, distrust.

Gulshan! “Men kimning qurbaniman” kitobining asosiy qahramoni. Bu kitob hayotiy voqeadan olinganligi haqida aytib o’tilgan yozuvchi Omina Shenlik o’g’li tomonidan.

O’smirlilik yoshi – bu bizning eng gullab yashnaydigan davrimiz bo’lib kelajagimiz poydevorini boshlanish davri hamdur. Ayni o’tish davrida o’smirlar qay yo’lni tanlashi birinchi navbatda o’z dunyo qarashi, ota-onasidan olgan tarbiyasi va atrof-muhitidagi kishilarga ham bog’liqdur. Bolalikdan katta orzular qila boshlaymiz, vaqt o’tgan sayin orzular yoshimiz bilan bir qatorda ulg’ayib boradi ammo taqdirimiz qanday kechadi bunisi bizga qorong’u, shu bilan bir qatorda, yosh avlod uchun ular kelajakda orzulariga yetishishida ota-onsa va tashqi muhitning ham ishonchi muhim ro’l o’ynaydi, huddi shunday Gulshanning hayotida ham yaqinlari tomonidan beparvorligi sabab hayoti faqat jabrga yuz tutgan, oilasidan topmagan mehrni tashqaridan izlagan bu qizaloq tugalmas sinovlarga duchor bo’lgan, insonlarni o’ziday bilgan va ko’p narsaga aqli yetmay ko’chada sarson bo’lgan yaqinlari tomonidan qidiruvlsiz bu 13 yoshli qizaloqni insonlar o’z nafsi yo’lida foydalanmoqchi bo’lishgan, qishloq qizini shahar ko’rmagan tasodifiy hayot muhiti ko’p sinovlarga yuz tutishiga sabab bo’ldi.

Begunoh qizaloq “Men kimning qurbaniman” savollari ichida yashagan, ilmsizligi sabab meni bu ko’yga tushushimga Alloh aybdor, Allohnini men yomon ko’raman deb takrorlar edi, toki hayotiga bir muallima ayol bo’lmaquniga qadar.

Men bu kitobni o'qib shunday hulosaga keldim:agar ota-onas beparvo bo'lmanida,yo'qolgan qiz qidirilganida edi qizning boshiga shunday ko'rgiliklar tushmas edi.

Gulshan o'z nomusini asrash uchun choraszlikdan 14 yoshida shariy nikohdan o'tar, turmush o'rtog'i qimorda yutqazib uni sotmoqchi bo'lar, begunoh qezaloq erining o'limiga tushunar tushunmas sababchi bo'lar, huquq posbonlari tomonidan o'las qib kaltaklanar va eng dahshatlisi aybsiz qiz nomusiga fohisha tamg'asi bosilmas edi.

Qizning taqdiriga shuncha ko'rgilik tushushiga qaramay uning qalbida kichkina bir uchqun bor edi.Barcha yaqinlari Gulshandan yuz o'girgan bo'lsada, otasidan umidini uzmas,hech kim aybsiz ekanligiga ishonmasada otam begunoh ekanligimga ishonadi va bu zindon azobidan meni qutqaradi deya o'ziga tasalli berar edi.Oradan necha yillar o'tibki otasidan xat kelgan,hayajondan zir titragan qo'llari kanvertni shosha-pisha ochar, lov etib yongan quvonch uchquni bir zumda ustidan suv qo'ygandi o'chdi. Xatda quyidagi so'z:endi meni sendek qizim yo'q, sen meni badnom qilding jumllalari edi.Gulshanning hayotida ma'no qolmadi, unga hech narsa kerak emas edi ham otasini birgina shirin so'zi bir umrga tatiguyl edi.

OTAJON SOG'INDIM SIZNI

Otajon so'zingiz sog'indim bugun
Dilimda qadalgan bir mayus tugun
Qizim deb erklang bir bora bir kun
Yuzingiz sog'indim,sog'indim bugun
Qizim deb boshim silang otajon
Bir umr yonimda bo'ling otajon
Baxtimni siz tilang,tilang otajon
Keling otajonim sog'indim bugun
Otajon menga mehringiz kerak
Quchog'ingiz to'la sehringiz kerak
Yonimda bo'ling faqat siz kerak,
Mehr to'la ko'zingiz sog'indim bugun
Har doim yoningda bo'laman derdiz
To'yinda bosh bo'lib turaman derdiz
Bo'ldi jonim qizim yig'lama derdiz
Mehribonim sizni sog'indim juda
Otajon yuzingiz ko'ray bir-bora
Holingiz nechuk deb so'ray bir bora
Keling,bag'rizga bosh qo'yay bir bora
Otajonim!yomon sog'indim bugun.

Gulshan otasiga yozgan xatni bir qismini o'qib beraman bu xatda inson anglash kerak bo'lган so'zлар bor:

Mehribon otajonim!

Maktubni ko'z yoshlarim bilan boshlayman.Yuborgan o'ldiruvchi xatingiz o'qidim.Men sizning farzandingiz emasmidim?! bu maktubni o'qiganingizda,ehtimolki o'lik honada yoki qabrdagi bo'laman.Meni kechiring demiman.....chunki men ham kechirolmiman otajon.Agar ohiratda farzandlarning ham otasi oldida haqqi bo'lsa,meni qarshingizda ko'rasiz,hech bo'limganda sizdan davogar bo'laman..... deb xatni yakunlar ekan u o'z nomi Gulshanga ham yakun yasadi,u endi faqat tirik murda edi,oldingi sodda qiz o'rnini imonsiz johil qiz aksi egallardi.Inson jismoniy har qanday qiyinchlikka chidar lekin ruhan o'lган insonni qayta hayotga qaytarish mushkul.Agar otasi qizga beparvo bo'limganda edi,uning boshiga shuncha ko'rgilik kelmas edi.

Ota!-cheksizlikni o'lchash imkonsiz bo'lgani kabi,otaning buyukligini tariflash ham imkonsizdur,hatto dunyodagi eng yaxshi so'zлар otaning birligining shirin so'ziga teng kelolmas.Dunyodagi har qanday erkak ota nomiga ega bo'lishi mumkin lekin otalik burchini ado etolmas ekan.

Ilmsizlik ham insonni ko'п talofatlarga olib keladi,ota-onaning loqaydligi kelajak avlodning yomon yo'llarga,ahloqsiz kishilarga sababchi bo'ladigan eng katta omuldir.

Aziz!ota-onalar farzandingizning tarbiyasiga befarq bo'limgang chunki siz bolalarning eng birinchi ustozini bo'lasiz,ular sizdan o'rnatishadi,sizdan mehr kutishadi,uyida ko'rmagan mehrni,e'tiborni tashqaridan izlashlariga imkon yaratib bermang.Farzandingizga befarq bo'limgang.

Qizning keyingi hayoti"Jinoyat va beva"romanida bayon etilgan.

Men kimning qurbaniman!!!

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. <https://t.me/ominaopanikitoblari>
2. https://t.me/imomnning_manekin_qizi
3. <https://t.me/kitoblar1>